

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ONA TILINI
O'RGATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI**

Qarshiyeva Zebiniso Berdimurodova

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 35-umumiy
o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

Annotatsiya: Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili, tilning lingvistik asosi, fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis.

Abstract: The methodology determines the tasks and content of teaching the native language, based on the educational and pedagogical tasks assigned to the school, and examines the educational process. The article discusses the linguistic foundations of teaching the native language of primary schoolchildren.

Keywords: primary education, native language, linguistic foundations of the language, phonetics, lexicology, morphology, syntax.

KIRISH

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, ya'ni fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi (morfologiya va sintaksis)ning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi.

Metodika fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi.

ASOSIY QISM

Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rinadi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi. Leksikologiya so'z yasalishi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi.

Morfologiya leksikologiya va soʻz yasalihi bilan jips bogʻlangan. Morfologiya, asosan, soʻzning grammatik xususiyatlarini oʻrganadi. Soʻzning grammatik maʼnosi doimo leksik maʼnosi bilan birga namoyon boʻladi, har bir soʻz, bir tomondan, shu soʻzga tegishli boʻlgan maʼlum oʻziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u soʻzning oʻz leksik maʼnosi boʻladi. Soʻzdagi mana shu umumiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida oʻrganiladi.

Soʻz uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli boʻlib, bunga soʻzning leksik maʼnosi va qator grammatik belgilari bogʻliq boʻladi. Yangi soʻz qaysi usul bilan vasalmasin, doim grammatik shakllanadi va oʻzining leksik maʼnosiga ega boʻladi. Har bir soʻz turkumida soʻz yasalihi xarakterli xususiyatlari mavjud. Soʻzning morfemik tarkibi va yangi soʻz yasalihi usullari tilshunoslik fanining soʻz yasalihi boʻlimida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda oʻrganiladi.

Morfologiya va sintaksis har tomonlama oʻzaro bogʻlanadi. Morfologiyada, asosan, soʻzlarning grammatik maʼnosi va uni ifodalash shakllari oʻrganiladi; sintaksisda soʻzlarni oʻzaro bogʻlanib soʻz birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi oʻrganiladi. Soʻz morfologiyada ham, sintaksisda ham oʻrganiladi, ammo oʻrganish obyekti har xil boʻladi. Sintaksisning oʻrganish obyekti gapdir; unda soʻz gap yoki soʻz birikmasida boshqa soʻzlar bilan maʼno va grammatik jihatdan bogʻlangan holda oʻrganiladi.

Morfologiyada soʻz gapdan tashqarida ham oʻrganilishi mumkin; soʻzga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan soʻzlar bilan oʻzaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda soʻzga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bogʻliqligini inkor etmaydi, aksincha, ular soʻz va gapning oʻzida yashaydi. Soʻzlar soʻz oʻzgarish tizimiga ega boʻlgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. Shakl yasalihi va soʻz yasalihi morfologiyada oʻrganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish qoidalarini oʻrganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish usulini aniqlashda shu soʻz birikmasiga kirgan soʻz turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bogʻliq holda oʻrganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil boʻlimi ekanini taʼkidlash uchun yetarli. Keltirilgan fikrlar boshlangʻich sinf oʻquvchilariga predmetlararo ichki bogʻlanishni hisobga olgan holda ona tilini oʻrgatish metodikasini belgilaydi:

1. Tilning barcha (leksik, fonetik, soʻz yasash, grammatik) tomonlari oʻzaro bogʻliqligini va ularning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, oʻquvchilar tilni ongli oʻzlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular oʻrtasidagi bogʻlanishni oʻzlashtirishlari zarur. 1-4-sinflarda ona tilini oʻrganish tizimi fonetika, leksikologiya, soʻz yasalihi va grammatikaning oʻzaro bogʻlanishi

mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

2. Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatik jih atdan to'g'ri tuzilishi kerak.

XULOSA

Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanilishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi o'rnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi.

Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mavjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda doimiy asos hisoblanadi.

REFERENCES

1. Jo'rayeva N. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021.
2. Yunusova D. Working on reading consciousness in elementary classes. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021.
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T.: O'qituvchi, 1992.
4. Yo'ldoshev J.G ,Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.